

## Ingliz Tili Darolarida Tinglab Tushunishni Rivojlantiruvchi Va Uni O`Stiruvchi Strategiyalar

**Mamajonova Mahbubaxon Mirzayevna**

Farg`ona davlat universiteti Ingliz tili o`qitish metodikasi kafedراسi datsenti

**Nabijonova Ozodaxon Umidjon qizi**

Farg`ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

**Annatsiya:** Ushbu maqolada tinglab tushunishni oshiruvchi va uni rivojlantirish mumkin bo`lgan strategiyalar haqida yozilgan.

**Kalit so`zlar:** strategiya, kognitiv, metakognitiv, tinglash, bosqich, o`rganuvchi, o`qituvchi.

Ingliz tilida tinglab tushunish ko`pchilik o`rganuvchilar qiyin deb hisoblaydigan malakadir. Xonadan tashqarida ingliz tilini ishlatishga to`g`ri kelganda, ular o`zlarini yo`qotib qo`yishadi va ba`zida o`zlarini bilimlarini o`sayotganini sezishmaydi. Bunga sabab bir qancha omillar bo`lishi mumkin. Masalan, o`qituvchilar o`rganuvchilarga tinglash amaliyot va vaqt talab qiladigan mahorat ekanligini tushuntirib, o`rgatishlari kerak. O`rganuvchilar ingliz tilini xonadan tashqarida tinglashga tayyor bo`lmasalar, bu ular uchun qiyin bo`ladi va sezilarli yutuqlarga erisha olmaydilar. O`qituvchilar o`rganuvchilarning o`ziga ishonchini oshirishlari va turli vaziyatlarda qo`llashlari mumkin bo`lgan foydali strategiyalarni va ularni qo`llash mumkin bo`lgan holatlarni o`rgatishlari zarur.

O`rganuvchilar ta`lim maskanida boshqa amalyotdan ko`ra ko`proq vaqtini tinglashga sarflashadi, lekin ko`p hollarda ustozlar o`rganuvchilarga tushunib tinglashni o`rgatish haqida o`ylamaydilar. Tushungan holda tinglash juda muhim, chunki u o`rganuvchiga audio material haqida ma`lumot beradi. Agar o`rganuvchilar tushunib tinglashni va yaxshi tinglovchi bo`lishining asosiy jarayonlarini bilishsa, o`rganish samaraliroq bo`lardi. Tinglashni o`qitish jarayonida xonada o`qitilishi mumkin bo`lgan asosiy strategiyalar bular: tanlab tinglash, turli maqsadlarda tinglash, tahmin qilish, vizualizatsiya(tasavvur qilish) va xulosa chiqarishdir. Bunday strategiyalar o`qitish mazmunidan ajratilmasligi zarur, aksincha unga mos ravishda tuzilishi zarur. Samarali tinglashni tinglovchi tinglashda foydalanadigan strategiyalarni ham ko`rib chiqish mumkin. Bunda savol paydo bo`lishi mumkin. O`rganuvchi asosiy e`tiborini asosan matn mazmuniga qaratadimi yoki u qanday tinglashni ham o`ylaydimi? Qanday qilib tinglash kerakligiga e`tibor qaratish tinglash strategiyalari haqidagi masalani ko`taradi. Strategiyalarni o`quvchining vazifaga yondashishi va uni boshqarish usullari kabi ko`rib chiqish mumkin, o`rganuvchilarga esa tinglashni boshqarishning samarali usullarini o`rgatish mumkin. Ushbu usullar o`rganuvchilarni tinglash jarayoniga jalb qilib qiziqtirishga sabab bo`ladi.

Olimlarning fikriga ko`ra tinglashda ikki xil strategiyalar mavjud:

**Kognitiv strategiyalar:** Bu strategiyada eshitilgan ma`lumotlarni keyinchalik qayta tiklash uchun ishchi xotirada yoki uzoq muddatli xotirada tushunish va saqlash bilan bog`liq aqliy faoliyat. Bu strategiyadagi tushunish jarayonlari: lingvistik va nolingvistik ma`lumotlarni qayta ishlash bilan

bog'liqdir. Bunda bu strategiyadan foydalanish va uni tushunish jarayonlari: eslab tayyorlash uchun xotiraga olib qolish bilan bog'liq jarayon.

Metakognitiv strategiyalar bular Kognitiv strategiyalarni boshqarishda ijro etuvchi funksiyani bajaradigan ongli yoki ongsiz aqliy faoliyatlar hisoblanadi. Bunda vaziyatni baholash: vazifani bajarishdan oldin o'z bilimlarini, mavjud ichki va tashqi resurslarni va vaziyatning istisnolarini baholash orqali til vazifasi bilan bog'liq sharoitlarni hisobga olish bilan bog'liq. Bu jarayondagi monitoring: Birovning yoki boshqa birovning vazifani bajarishda samaradorligini aniqlash hisoblanadi. Bu jarayonda o'z-o'zini baholashda faoliyat bilan shug'ullangandan so'ng, o'zining yoki boshqasining faoliyati samaradorligini aniqlash kiradi. Bundan tashqari o'z-o'zini sinab ko'rish bu tildan foydalanish yuqoriligini yoki uning pastligini aniqlash uchun o'zini sinab ko'rish hisoblanadi. O'rganuvchilarga tinglash amalyotini o'rgatish va rivojlantirish uchun o'qituvchilar bir qancha ishlarni amalga oshirishlari zarurdir. Bunda birinchi bo'lib, o'quv maqsadlarini aniqlash va o'sha maqsadlarga erishish mumkin bo'lgan vositalarni tanlash strategiyasidan foydalanishdir.

Ularning asosiy maqsadi umumiy tinglashni rivojlantirish bo'lishi kerak deb o'ylayman. Bunda tinglashni rivojlantirish uchun o'quv maqsadlarini aniqlab olish zarur. Bunda asosiy qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni qo'yib olish darkor. Shundan keyin, bu maqsadlarga erishish uchun imkoniyatlar va qo'llanmalar izlash kerak. O'qituvchilar oldin o'rganuvchilarga maxsus tinglash vazifasi nima ekanligi, tinglashdan oldin asosiy fikrlarni ko'rib chiqish va ularni tahmin qilish foydali ekanligini tushuntirishlari lozim. O'rganuvchilarga tinglash qo'llanmasini berishdan oldin o'zlari bu materiallarni ko'rib chiqib, ular haqida ma'lumotga ega bo'lishlari zarur. Endi ishlangan materiallarni ko'zdan kechirish jarayoni bu o'rganish yoki o'quv topshirig'ini bajarish jarayonida muvaffaqiyatni tekshirish strategiyasi hisoblanadi. Bunda oldindan belgilangan mezonlarga mos holda ularni ko'rib chiqish zarur. Ularni tekshirish va qanday xatolarga yo'l qo'yilayotganligini aniqlab olish kerak. Bu strategiyalar orqali o'rganuvchi qayerda qiynalayotgani va uni qanday bartaraf etish mumkinligini tahmin qilish mumkin.

Tinglash darsida tinglash strategiyasini o'rgatishda quyidagi bosqichlarni o'rgatish foydalidir:

1-bosqich: Tinglashdan oldingi faoliyat hisoblanadi. Bunda o'rganuvchilar audioda eshitishlari mumkin bo'lgan so'z va iboralarni tahmin qilishadi. Ular tahminlarini yozadilar. Ular o'zbek tilida ba'zi so'zlarni yozishlari mumkin.

2-bosqich: Avval tinglash zarur.

Matnni tinglayotganda, o'rganuvchilar o'zlari to'g'ri tahmin qilgan so'z yoki iboralarni (shu jumladan, o'zbek tildagi ekvivalentlarini) tagiga chizadilar yoki ularni doiraga oladilar. Shuningdek, ular eshitgan yangi ma'lumotlarni yozib oladilar.

3-bosqich: Audio jarayoniga asoslangan muhokama. O'rganuvchilar juft bo'lib, shu paytgacha tushunganlarini solishtiradilar va bu tushunchaga qanday kelganliklarini tushuntiradilar. Ular chalkashtirgan va xato qilishlariga sabab bo'lgan qismlarni aniqlaydilar va matnning ikkinchi tinglashda alohida e'tibor talab qiladigan qismlarini belgilab oladilar.

4-bosqich: Ikkinchi tinglashda o'rganuvchilar chalkashtirgan yoki xato qilishlariga sabab bo'lgan qismlarni tinglaydilar va eshitgan har qanday yangi ma'lumotni yozib oladilar.

5-bosqich: Butun guruh jarayonga asoslangan muhokamadir. O'qituvchi o'rganuvchular bilan ular foydalangan strategiyalarni muhokama qilishdan oldin tushunganliklarini aniqlab olish uchun muhokama jarayoni uyishtiriladi.

Hulosa qilib aytganda, o'rganuvchilarga tinglab tushunishni o'rgatishda asosiy yuk o'qituvchilarga yuklanadi va ular o'rganuvchilarga foydali bo'lgan strategiyalarni o'rgatishlari va ularni amalda qo'llashlarini ta'minlashlari zarur. Bunda ular tinglab tushunish til o'rganishning asosiy va muhim boshqichi ekanligini tushuntirishlari va ularga yo'l yo'riqlarini o'rgatishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ingliz tili o'qitish metodikasi bo'yicha. 2020 y. Z. Rustamova, N. Ruziyeva, H. Hakimov

2. Chet tili o`qitish metodikasi. J. Jalolov 2015 y.
3. Boshlang`ich sinflarda ingliz tili o`rgatish.2019 y. S. E. Erkinov.
4. Ingliz tili o`qitish metodikasi. 2003 y. O`. Hoshimov.
5. Обучение иностранному языку в начальной школе. / иностранный язык и школа, Вятютнев М.Н. 1990 г.
6. <https://onlinelibrary.wiley.com>.
7. <https://www.wgu.edu/blog/15-tips-creating-safe-learning-environment2202.html>
8. <https://ontesol.com/blog/how-to-teach-english/teaching-listening>